

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI

ENERGETIKA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY,
SIYOSIY-INSTITUTSIONAL MUAMMOLARI*Oqiliddin Alimov**O'qituvchi, Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: energetika xavfsizligi, xalqaro energetika huquqi, tabiiy zaxiralar qonunchiligi, energetika huquqining transmilliy tabiati, Xalqaro Energetika Xartiyasi, energetika huquqining xalqarolashuvi, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar.

Annotatsiya: Zamonaviy bosqichda xalqaro hamjamiyatning asosiy vazifasi BMT Nizomida belgilangan kollektiv xavfsizlikning yaxlit tizimini yaratish va qo'llab-quvvatlash, uning barqaror va samarali bo'lishini ta'minlashdan iboratdir. So'nggi paytlarda energetika munosabatlarining xalqaro miqyosdagi ahamiyati tobora oshib bormoqda. Bunday sharoitda global energetika masalalarida to'g'ri siyosiy doktrinani ishlab chiqish, ichki energiya bozorlarini yuqori sifatli huquqiy tartibga solish muhim ahamiyatga ega.

Energetika xavfsizligini ta'minlashning muhim elementi energetika sohasidagi davlatlar o'rtasidagi hamkorlikdir. Xalqaro munosabatlarning tarkibiy qismi bo'lib kelgan xalqaro energetika aloqalari jahon siyosatining tabiati va mazmuniga ta'sir qiladi va o'z navbatida u tomonidan shakllanadi. Energiya resurslari va tabiiy zaxiralardan foydalanish qonunchiligining xalqaro tajribasi tahlili turli mamlakatlarda o'ziga xos huquqiy-me'yoriy asoslar vujudga kelganligini ko'rsatadi. Bugungi kunda aksariyat davlatlarda, ular roman-german yoki anglosakson huquqiy oilalariga mansubligidan qat'i nazar, tabiiy resurslardan foydalanishga doir munosabatlarni huquqiy tartibga solish asoslarini turli darajadagi qonunlar va boshqa normativ huquqiy hujjatlarning normalari tashkil etadi.

Shuningdek, global energetika xavfsizligini ta'minlash xalqaro va hukumatlararo tashkilotlar, jumladan, BMTning

ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Xalqaro energetika munosabatlari keng ko'lamli, ko'p komponentli tushuncha bo'lib, u albatta xalqaro darajada huquqiy tartibga solishni talab qiladi. Shubhasiz, ushbu vaziyatning xalqaro jihati ushbu masalalarga ta'sir qiluvchi xalqaro huquqning yangi manbalarining paydo bo'lishi shaklida ham, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan huquqiy xarakterdagi boshqa mexanizmlarning paydo bo'lishi shaklida ham namoyon bo'ladi.

INTERNATIONAL LEGAL, POLITICAL AND INSTITUTIONAL PROBLEMS OF ENSURING ENERGY SECURITY

Okiliddin Alimov

Lecturer, Doctor of Philosophy in Political Science (PhD),

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: energy security, international energy law, natural resources legislation, transnational character of energy law, International Energy Charter, internationalization of energy law, international and regional organizations.

Abstract: At the modern stage, the main task of the international community is to create and support the global system of collective security established by the UN Charter, to ensure its stability and effectiveness. Recently, the importance of energy relations on an international scale is increasing. In such circumstances, it is important to develop the correct political doctrine on global energy issues, to bring domestic energy markets into a high-quality legal order.

An important element of ensuring energy security is cooperation between countries in the field of energy. International energy relations, which have been a component of international relations, affect the nature and content of world politics and, in turn, are shaped by it. The analysis of the international experience of the legislation on the use of energy resources and natural reserves shows that specific legal and regulatory frameworks have been created in different countries. Today, in most countries, regardless of whether they belong to the Romano-Germanic or Anglo-Saxon legal families, laws and other regulatory legal documents of various levels form the basis of legal regulation of relations related to the use of natural resources.

Also, ensuring global energy security has become one of the priorities of international and intergovernmental organizations, including the UN. International energy relations is a large-scale, multi-component concept, which certainly requires legal regulation at the international level. Undoubtedly, the international aspect of this situation is

manifested both in the form of the emergence of new sources of international law affecting these issues, and in the form of the emergence of other mechanisms of a legal nature with specific characteristics.

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ, ПОЛИТИКО-ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Окилиддин Алимов

Преподаватель, доктор философии по политическим наукам (PhD),

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:

энергетическая безопасность, международное энергетическое право, право природных ресурсов, транснациональный характер энергетического права, Международная энергетическая хартия, интернационализация энергетического права, международные и региональные организации.

Аннотация:

На современном этапе главной задачей международного сообщества является создание и поддержка всеобъемлющей системы коллективной безопасности, установленной Уставом ООН, обеспечение ее стабильности и эффективности. В последнее время возрастает значение энергетических отношений в международном масштабе. В таких условиях важно выработать правильную политическую доктрину по вопросам глобальной энергетики.

Важным элементом обеспечения энергетической безопасности является сотрудничество между странами в сфере энергетики. Международные энергетические отношения, которые были составной частью международных отношений, влияют на характер и содержание мировой политики и, в свою очередь, формируются ею. Анализ международного опыта законодательства об использовании энергетических ресурсов и природных ресурсов показывает, что в разных странах создана определенная нормативно-правовая база. Сегодня в большинстве стран, независимо от того, принадлежат ли они к романо-германской или англосаксонской правовой семье, законы и другие нормативно-правовые документы различного уровня составляют основу правового регулирования отношений, связанных с использованием природных ресурсов.

Также обеспечение глобальной энергетической безопасности стало одним из приоритетов международных и межправительственных организаций, в том числе ООН. Международные энергетические отношения – масштабное, многокомпонентное понятие, которое обязательно требует правового регулирования на международном уровне. Несомненно, международный аспект данной ситуации проявляется как в форме появления новых источников международного права, затрагивающих эти вопросы, так

и в форме появления иных механизмов правового характера, обладающих специфическими характеристиками.

KIRISH

Xalqaro xavfsizlik huquqi – bu global tinchlikni o‘rnatish va saqlash maqsadida xalqaro munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan xalqaro huquq tamoyillari va normalari majmuidir. Xavfsizlik siyosatini amalga oshirish uchun nafaqat xalqaro huquqning asosiy tamoyillariga, balki energetika sohasiga tegishli xalqaro xavfsizlik huquqining tarmoq prinsiplariga ham qat’iy rioya etish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda energiya resurslarining iqtisodiy va siyosiy jihatdan muhim ahamiyatidan kelib chiqib, xavfsiz energiya ta’minotini ta’minlash masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Energetika xavfsizligi masalasi neft eksport va import qiluvchi davlatlar, tranzit mamlakatlar va jahon energetika bozorining boshqa barcha ishtirokchilari uchun ham muhim ahamiyatga egadir.

TADQIQOTNING USULLARI

Tadqiqotning maqsadi sifatida xalqaro energetika munosabatlarini xalqaro-huquqiy jihatdan tartibga solish xususiyatlari, xalqaro energetika munosabatlarining siyosiy-tashkiliy asoslarining shakllanish tendensiyalari, xalqaro energetika munosabatlarini tartibga solishning xalqaro va xorijiy tajribasini yoritish kabi vazifalar qo‘yilgan.

Usullar: maqolada nazariy-metodologik, statistik tahlil va tizimlashtirish tamoyillari, shuningdek, qiyosiy, tizimli tahlil kabi usullardan foydalanildi.

NATIJALAR

Ko‘pgina xorijiy mamlakatlarda energiya resurslari, tabiiy zaxiralardan foydalanishga oid qonunchilikning asosini qoida tariqasida mamlakat konstitutsiyasi, maxsus normativ-huquqiy hujjatlar, boshqa xuquq va qonunchilik tarmoqlarining alohida normalari, anglo-sakson huquq oilasiga mansub davlatlarda esa pretsedentlar tashkil etadi va ular umumiy holda energiya resurslari va tabiiy zaxiralardan foydalanishni xuquqiy tartibga solish tizimini tashkil qiladi¹.

Aksariyat mamlakatlarda yer qa’ridan foydalanishga oid munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik ikki mustaqil yo‘nalishga ajratiladi: qattiq foydali qazilmalarni qazib olishni tartibga soluvchi qonunchilik va neft-gaz qazib olish tartibini belgilovchi qonunchilik. Mazkur differensial yondashuv tarixan shakllangan bo‘lib, qattiq foydali qazilmalarni o‘zlashtirish uglevodorod konlaridan foydalanish yo‘lga qo‘yilishidan ancha ilgari boshlanganligi bilan izohlanadi. Adabiyotlarda “tog‘-kon qonunchiligi” tushunchasi keng qo‘llanilishiga ham e’tibor qaratish lozim. Mazkur tushuncha ostida yer qa’ri to‘g‘risidagi barcha qonunchilik (uni yuqoridagi kabi ikki turga ajratmagan holda) majmui tushuniladi.

Tarixan qattiq tabiiy resurslarni qazib olishni tartibga soluvchi huquq normalari yerga nisbatan mulkchilik bilan bog‘liq bo‘lib kelgan va bu hozirgi kunga qadar yer qa’ridan foydalanish tizimiga ta’sir ko‘rsatib keladi. Aksariyat g‘arb davlatlarida o‘rta asrlarda yer qa’ri qonunchiligi yerga nisbatan mulk huquqi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan².

¹ Xolmo‘minov J.T., Safarov J.I. Xorijiy mamlakatlarda tabiiy resurslar huquqi: qiyosiy tahlil va qonunchilikni takomillashtirish. – T., 2012. – 125 b.

² Яценко И.С., Василевская Д.В. Зарубежное и российское законодательство о недрах: сравнительно-правовой анализ. 2011// URL:<http://www.fpa.su/biblioteka/izdaniya/istoriya-gosudarstva-i-prava-rossiya-i-zarubezhe/zarubezhnoe-i-rossiyskoe-zakonodatelstvo-o-nedrah>-sra vnitelno-pravovoy-analiz-i-s-yatsenko-d-v-vasilevskaya

Ancha keyin vujudga kelgan neft va gaz to'g'risidagi qonunchilik esa, yer-huquqiy munosabatlari bilan bu qadar uzviy bog'liq bo'lmagan, bundan tashqari yer qa'ridan foydalanishga oid munosabatlarni tartibga solish ushbu sohaga davlatning keng miqyosdagi aralashuvi bilan birga kechadi va bu uglevodorod resurslarining mamlakatning iqtisodiy va siyosiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi.

Kontinental shelfda uglevodorod resurslari zaxirasiga ega bo'lgan davlatlarda neft va gaz qonunchiligidan tashqari alohida kontinental shelfda uglevodorod resurslaridan foydalanish tartibini belgilovchi qonunlar qabul qilinadi, ularda quruqlikda neft va gaz qazib olish maqsadida yer qa'ridan foydalanish tartibini belgilovchi qonunchilikka nisbatan ekologik, tabiatni muhofaza qilish normalari kuchaytirilgan bo'ladi shuningdek, ko'p hollarda chet el investorlarini jalb qilgan holda ishtirokchilarning subyektiv tarkibi kengaytirilgan bo'ladi.

Yer qa'ridan foydalanishga oid munosabatlar ishtirokchilarining subyektiv tarkibini kengaytirish bilan bog'liq mazkur amaliyot shu bilan izohlanadiki, kontinental shelfda yer qa'ri resurslarini o'zlashtirish katta miqdordagi mablag' talab qiladigan va o'zini uzoq istiqbolda oqlaydigan loyiha bo'lib, erkin moliyaviy resurslar bo'lmagan hollarda davlat va milliy kompaniyalar qoida tariqasida konlarni o'zlashtirish uchun chet el investitsiyalarini jalb etadilar³.

Xorijiy mamlakatlarning tabiiy zaxiralar qonunchiligi davlatning resurs siyosati, tabiiy zaxiralardan foydalanish sohasiga davlat aralashuvining o'rnatilgan chegaralari, huquq normalarini qo'llash mexanizmlari, tabiiy resurslar qonunchiligi talablarini ijro etishni ta'minlash yo'llari, umumiy va maxsus vakolatli davlat organlari faoliyati amaliyoti va boshqa bir qator omillar ta'sirida shakllangan⁴.

Tadqiqotchilar qayd etishlaricha, konchilik tarmoqlari rivojlangan mamlakatlarda mustaqil hamda o'z mazmuni va tuzilishiga ko'ra rang-barang tizimlar asrlar mobaynida shakllangan. Kontinental huquq tizimiga kiruvchi mamlakatlarda kodekslar yoki ularga o'xshash yirik qonunlar sifatidagi normativ huquqiy hujjatlar yer qa'ri to'g'risidagi qonunchilikning asosi hisoblanadi (Fransiya, GFR, Chili, Braziliya, JAR va boshq.), anglosakson huquq tizimiga kiruvchi davlatlar (AQSH, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Kanada va boshq.) esa pretsedent huquq tizimi amal qiladi. Bu tizimda qonun hujjatlari qonunlar to'plamida inkorporatsiya qilinadi (AQSH) yoki konsolidatsiya qilinadi (Buyuk Britaniya) va yer qa'ridan foydalanishga doir munosabatlarni tartibga soluvchi hujjatlarning rasmiy yoki norasmiy to'plamlarini tashkil etadi. Mazkur hujjatlar, o'z navbatida, shunday usulda tizimlashtirilganki, ba'zi bir tadqiqotchilar pretsedent huquqi tizimida qonunchilikning foydali qazilmalarni shaxta usulida qazib olish, uglevodorodlar, qimmatbaho metallar, rux, tuz va hokazolarni qazib chiqarishni tartibga soluvchi kichik tarmoqlari to'g'risida so'z yuritish mumkin deb hisoblaydilar.

Anglo-sakson va roman-german huquq tizimlariga mansub davlatlarda yer qa'ri tabiiy zaxiralaridan foydalanishga doir munosabatlarni tartibga solishga nisbatan umumiy yondashuvlarda jiddiy farqlar borligiga qaramay, o'xshash normalar va prinsiplar mavjud. Jumladan:

- yer qa'ri tabiiy zaxiralaridan foydalanishga doir munosabatlar davlat tomonidan tartibga solinadi;

- yer qa'rini foydalanish uchun berish ko'pincha tanlov asosida amalga oshiriladi;

- yer qa'ridan foydalanganlik uchun haq undiriladi;

³ Xolmo'minov J.T., Safarov J.I. Xorijiy mamlakatlarda tabiiy resurslar huquqi: qiyosiy tahlil va qonunchilikni takomillashtirish. – T., 2012. – 126-b.

⁴ Ключин Б.Д. Горные отношения в странах Западной Европы и Америки. – М., 2000. – С. 21.

- yer qa'ridan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati o'rnatiladi va h.k⁵.

Ayni vaqtda, xorijiy mamlakatlarning yer qa'ridan foydalanishga oid qonunchiligining rivojlanish tarixini o'rganish uzoq vaqt mobaynida, XX asrning o'rtalariga qadar, chet davlatlarning aksariyatida qonunchilik ko'p jihatdan mustaqil rivojlanganini ko'rsatadi. Keyinchalik, mamlakatlar turli ittifoqlar, hamdo'stliklarga birlashishlari munosabati bilan, shuningdek globallashuv jarayonlari ta'sirida yer qa'ridan foydalanish borasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishga nisbatan umumiy sxemalar va yondashuvlarni ishlab chiqish tendensiyalari namoyon bo'la boshlaydi⁶.

Energiya resurslari va tabiiy zaxiralardan foydalanish qonunchiligining xalqaro tajribasi tahlili turli mamlakatlarda o'ziga xos huquqiy-me'yoriy asoslar vujudga kelganligini ko'rsatadi. GFRning "Yer qa'rini muhofaza qilishga doir normalarni konsolidatsiya qilish to'g'risida" 1996-yil 15-aprel Qonuni, "Yer qa'rini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun; Buyuk Britaniyada 1928-yildagi neft qazib chiqarish masalalariga doir parlament va hukumat qarorlarini birlashtirgan qonun – "Neft qazib chiqarish to'g'risida konsolidatsiya qilingan qonun", "Yer ostidagi va usti ochiq konlar to'g'risida" qonun, 1964-yilgi "Kontinental shelf to'g'risida"gi qonun; 1971-yilgi "Ochiq dengizda foydali qazilmalarni kavlab olish to'g'risida"gi qonun, 1981-yilgi "Dengiz tubidan foydali qazilmalarni kavlab olish to'g'risidagi muvaqqat qonun", "Neft konlaridan foydalanishda davlat fondiga pul mablag'larini ajratishning majburiyigidan ozod qilish to'g'risida"gi qonun shular jumlasidandir. Hozirgi vaqtda Buyuk Britaniyada neft va gaz resurslarini o'zlashtirish borasida asosiy normativ huquqiy hujjatlar sifatida Neft qazib chiqarish to'g'risidagi qonun (Retroleum Reduction Act, 1934) va 1964-yilgi Kontinental shelf to'g'risidagi qonun (The Continental Shelf Act) e'tirof etilgan.

Bugungi kunda aksariyat davlatlarda, ular roman-german yoki anglosakson huquqiy oilalariga mansubligidan qat'i nazar, yer qa'ridan foydalanishga doir munosabatlarni huquqiy tartibga solish asoslarini turli darajadagi qonunlar va boshqa normativ huquqiy hujjatlarning normalari tashkil etadi. Masalan, Buyuk Britaniyaning "Neft qazib chiqarish to'g'risida" va "Kontinental shelf to'g'risida"gi qonunlarida yer qa'ri resurslariga bo'lgan davlat mulk xuquqi va yurisdiksiyasi belgilangan. Ya'ni yer qa'ridan foydalanishga doir munosabatlarni huquqiy tartibga solish va mazkur sohani davlat tomonidan boshqarish asoslari qonunlar darajasida ta'riflangan. Yer qa'ridan foydalanishga doir munosabatlarni tartibga solishga davlat aralashuvining yuqorida zikr etilgan sohasi davlat yer qa'ri resurslarining mulkdori sifatida ulardan foydalanish jarayoniga sezilarli darajada aralashish imkoniyatiga ega degan xulosaga kelish imkonini beradi⁷.

Energiya resurslari savdosidan mamlakat byudjetiga maksimal darajada foyda keltirishga qaratilgan tabiiy resurslar ustidan davlat nazoratini o'rnatish jarayoni "resurslar natsionalizmi" nomini oldi. Ushbu siyosat tarafdorlari 1962-yil 14-dekabrda qabul qilingan "Tabiiy resurslar ustidan doimiy suverenitet to'g'risida" gi BMTning 1803 (XVII) rezolyusiyasida bayon etilganidek, davlatning tabiiy boyliklaridan xalqning farovonligi uchun davlatning ajralmas huquqidan foydalanishi sifatida qaraydilar⁸. "Resurslar natsionalizmi" turli xil shakllarda amalga oshirilib, xalqaro TMK faoliyati ustidan qattiq nazorat o'rnatishdan tortib, to korxonalarni to'liq

⁵ Xolmo'minov J.T., Safarov J.I. Xorijiy mamlakatlarda tabiiy resurslar huquqi: qiyosiy tahlil va qonunchilikni takomillashtirish. – T., 2012. – 130-b.

⁶ O'sha yerda. – 130-b.

⁷ Xolmo'minov J.T., Safarov J.I. Xorijiy mamlakatlarda tabiiy resurslar huquqi: qiyosiy tahlil va qonunchilikni takomillashtirish. – T., 2012. – 135-b.

⁸ Резолюция 1803 (XVII) Генеральной Ассамблеи ООН от 14 декабря 1962 года. URL: <http://www.terralegis.org/terra/act/b361.html>

davlat tasarrufiga o'tkazishgacha bo'lishi mumkin. Bugungi kunda ko'pgina mamlakatlarda davlatga qarashli yirik energetika kompaniyalari tashkil etilgan. Masalan, Saudiya Arabistoni "Saudi Aramco" davlat neft kompaniyasi mamlakatdagi neft zaxiralarning 98 foizini, shuningdek, neft va suyultirilgan gazni qayta ishlash va tashishni nazorat qiladi⁹. Venesuela davlat neft kompaniyasi "Petroleos de Venezuela" 1976-yilda neft va gaz sektorini milliy lashtirish natijasida tashkil etilgan bo'lib, mamlakatda monopol sanalib, kompaniya neft va gazni qazib olish, qayta ishlash va sotish bilan shug'ullanadi. Norvegiyada eng yirik neft va gaz shirkati – Statoil hukumatning nazoratdagi ulushiga ega Evropa bozoriga neft va gaz yetkazib beruvchi asosiy manba hisoblanadi.

Biroq, konchilik korxonalarini natsionalizatsiyasi o'z kamchiliklariga ega. Birinchidan, har qanday davlatning investorlarsiz resurslarni qidirish va qazib olish sohasida, xususan, dunyoning murakkab tabiiy va iqlimiy sharoitlarida amalga oshirish mumkin emas. Ikkinchidan, sotilgan xom ashyodan olingan daromadning aksariyat qismi davlat ehtiyojlari uchun sarflanishi hisobiga sohaning texnologik jihatdan ortda qolishiga sabab bo'ladi.

Xom-ashyoni sotishdan olinadigan eksport daromadlarining o'sishi asosan tovarlar sektoridagi o'sishiga olib keladi. Xom ashyoning dunyo narxlarining o'sishi, valyuta ayirboshlashning sezilarli darajada o'sishi milliy valyutaning o'sishi uchun muhim omil bo'lib qolmoqda, bu iqtisodiyotning boshqa sohalaridagi raqobatbardoshlikka salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va iqtisodiyotda, inflyatsiya va ishsizlikning salbiy oqibatlariga olib keladi. Bunga misol Venesuela neft eksportining yetakchilaridan biri, sotishdan yuqori daromad oladigan mamlakat bo'lishiga qaramay, mamlakatda hali ishsizlik, jinoyatchilik va qashshoqlikning yuqori darajasini yengib chiqa olmagan. Biroq, bu jihat barcha eksportyor davlatlarga xos emas. Masalan, Birlashgan Arab Amirliklari, Qatar, Kuvayt va Norvegiya kabi yirik neft va gaz eksport qiluvchi davlatlar yuqoridagi muammolarga duch kelmaydi. Byudjet daromadlarining asosiy qismini uglevodorod eksportidan oladigan bu mamlakatlar o'z fuqarolari uchun yuqori darajadagi turmush darajasini ta'minlab, iqtisodiyotni rivojlantirmoqda.

Bundan tashqari, eksport qiluvchi davlatlarning energiya xavfsizligiga xavf tug'ilishi, jahon bozorida xom ashyo mutanosibligini mustahkamlashdan iborat, chunki bu dunyo narxlarining o'zgaruvchanligiga bog'liqdir. Shunday qilib, bir necha yilga (1986-1988-yillar) neft narxining pasayishi dunyodagi geosiyosiy o'zgarishlarga, SSSRdagi iqtisodiy inqirozga, siyosiy qayta qurishga va butun sotsialistik tuzumning qulashiga olib keldi¹⁰.

Shuningdek, o'z tabiiy xom ashyo zaxiralarga ega bo'lmagan mamlakatlar taraqqiyoti muvaffaqiyatli va barqaror ekanligini ko'rish mumkin. Jumladan, Yaponiya, mamlakatda uglevodorodlarning deyarli yo'qligiga qaramay, dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlardan biri bo'lib, raqobatbardosh eksportga yo'naltirilgan sanoatga ega va o'z xalqiga munosib turmush darajasini ta'minlaydi.

Shunday qilib, tabiiy resurslar mavjudligining o'zi mamlakat iqtisodiy farovonligining kafolati emas va ko'pincha ijtimoiy muammolarning o'sishi bilan bog'liq siyosiy beqarorlikka olib kelishi ham mumkin. Energiya xavfsizligini ta'minlash resurslarning yetishmasligi yoki ularning badastiriligida emas, balki muvozanatli davlat energetika siyosati va xom ashyoni sotishdan olingan daromatlardan samarali foydalanish masalasidir.

⁹ Нефтяной комплекс Саудовской Аравии // Официальный сайт ГП "ЦДУ ТЭК". URL: <http://www.cdu.ru/articles/detail.php?ID=301905>

¹⁰ Qarang: Арбатов А., Смирнов В., Фейгин В. Циклы нефтяной зависимости // Россия в глобальной политике. – 2005. – Т. 3, № 2. – С. 185-198; Заславский А. Иностранные компании и российская нефть // Pro et Contra. – 2011. – №5(53). – С. 40-50; Гэдди К., Икес Б. Сможет ли Россия слезть с «сырьевой иглы» // Pro et Contra. – 2011. – №5(53). – С. 23-39.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 2012-yilni barcha mamlakatlar uchun “Xalqaro barqaror energiya yili” deb e’lon qildi va maxsus rezolyutsiyani qabul qildi, unga ko‘ra 2030-yilga mo‘ljallangan energetika sohasida hamkorlik bo‘yicha maqsadlar qatoridan “energiya resurslaridan universal foydalanish, resurslar samaradorligini oshirish, jahon energiya balansida qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini ikki baravar ko‘paytirish” belgilandi¹¹. Shunday qilib, global energetika xavfsizligini ta’minlash xalqaro va hukumatlararo tashkilotlar, jumladan, BMTning ustuvor vazifalaridan biriga aylandi.

Ko‘pgina adabiyotlarda “energetika xavfsizligi” va “energiya ta’minoti xavfsizligi” tushunchalari farq qiladi. Birinchi atama asosan xalqaro tashkilotlar hujjatlarida¹², ikkinchisi esa odatda Yevropa energetika huquqida qo‘llaniladi, (masalan, Lissabon shartnomasi, 176-A modda)¹³. “Yashil hujjat 2000” ga muvofiq, Yevropa Ittifoqi o‘z fuqarolarining farovonligi va iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlashga qaratilgan energiya resurslari ta’minoti xavfsizligi bo‘yicha uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqqan.

Energetika xavfsizligini ta’minlashning muhim jihati atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq. A.Bredbruk o‘zining “Energetika huquqi: ekologik huquqning e’tibordan chetda qolgan jihatlari”¹⁴ nomli maqolasida ta’kidlaganidek, ekologik huquq “an’anaviy ravishda energiya resurslaridan foydalanishning nojo‘ya ta’siriga qaratilgan bo‘lib, xomashyoning turi haqidagi savolga e’tibor bermaydi”. Boshqacha qilib aytganda, havo va suv sifati standartlari sohasida huquqiy tartibga solish amalga oshiriladi, lekin energiya ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan yoqilg‘ini tanlash to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgilanmagan. Shunday qilib, “qonun ifloslanish sabablariga emas, balki oqibatlariga qaratilgan”. Shunga qaramay, muallifning yozishicha, ko‘plab ekologik muammolar, jumladan, havoning ifloslanishi va kislotali yomg‘irlar energiya resurslaridan cheksiz foydalanish natijasida yuzaga keladi.

XX asrda xalqaro munosabatlarning asosiy tarmoqlari qatorida energetika sohasi ham davlat, ham xususiy manfaatlarni ta’minlaydigan zamonaviy iqtisodiyotga asos solgan poydevorga aylandi. Yevropa sudining 1984-yil 10-iyuldagi 72/83-sonli qarorida¹⁵ ta’kidlanganidek, “neft mahsulotlari zamonaviy iqtisodiyotda energiya manbai sifatida alohida ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli, mamlakat hayoti uchun muhim ahamiyatga ega. Neft davlat iqtisodi, xususan, davlat xizmatlarini ko‘rsatish, aholi farovonligini ta’minlash uchun zarurdir. Shunday qilib, neft mahsulotlari va energetikaning bunday favqulodda ahamiyatiga asoslanib, ushbu sanoatning iqtisodiy qiymati bilan bir qatorda, energetika sohasidagi munosabatlarni milliy davlatlar hamda xalqaro darajada tartibga solish zarurati oshdi.

Energetika huquqining transmilliy tabiati transchegaraviy elektr tarmoqlari yoki gaz quvurlari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, energiya resurslarini qazib olish

¹¹ Байскалова М.Н. Международно-правовое регулирование ВИЭ и роль ИРЕНА (Международное агентство по возобновляемой энергии) // Инновационная наука. – 2015. – №8. – С. 110 // URL: <http://cyberleninka.ru/article/n/mezhdunarodno-pravovoe-regulirovanie-vie-i-rol-irena-mezhdunarodnoe-agentstvo-po-vozobnovlyаемoy-energii>.

¹² World energy outlook 2016. Executive summary. // URL: https://www.iea.org/bookshop/720-World_Energy_Outlook_2016

¹³ Treaty of Lisbon amending the Treaty on European Union and the Treaty establishing the European Community, signed at Lisbon, 2007 // URL: <http://eur-lex.europa.eu/legal-content/en/TXT/?uri=CELEX%3A12007L%2FTXT>

¹⁴ Bradbrook A. Energy law: the neglected aspects of environmental law // Melbourne University Law Review. – 1993. – Vol. 19. – P. 1-2. // URL: <http://www.austlii.edu.au/au/journals/MelbULawRw/1993/1.html>

¹⁵ Judgment of the Court of Justice of European Union, regarding case № 72/83 Campus Oil Limited and others v Minister for Industry and Energy and others. – 1984. – para. 7. // URL: <http://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A61983CJ0072>

va sotish transchegaraviy ahamiyatga ega. Shuning uchun bu barcha holatlarda milliy va xalqaro manfaatlar mutanosibligini taqozo etadi¹⁶.

Avvalo, xalqaro huquqning mustaqil tarmog'i sifatida energetika munosabatlarini xalqaro huquqiy tartibga solishni ajratib ko'rsatish mumkinmi yoki yo'qligini aniqlash kerak, va bu borada xalqaro huquqshunos olimlar orasida yagona to'xtam ham mavjud emas. Professor Adrian Bredbruk o'zining "Energetika huquqi akademik dissiplina sifatida"¹⁷ nomli asarida energetika huquqini "barcha energiya resurslaridan foydalanish bilan bog'liq huquq va majburiyatlarni shaxslararo, shaxslar va davlat organlari o'rtasida, davlatlar o'rtasida taqsimlanishi" deb ta'riflagan.

Muallif munosabatlarning ushbu sohasini huquqiy tartibga solish predmetining o'ziga xos xususiyatlari – energiya resurslaridan foydalanishdan kelib chiqadigan munosabatlar bilan bog'liq holda ajratib ko'rsatadi. Xuddi shunday, rus mualliflari ham bu fikrni qo'llab-quvvatlaydilar. A.N. Vylegjanin ta'kidlashicha, xalqaro energetika huquqi hanuzgacha shakllanishning dastlabki bosqichida bo'lib, xalqaro iqtisodiy huquqning kichik tarmog'i sifatida qolmoqda¹⁸. Bundan tashqari, D.L. Smirnovning yozishicha, energetika munosabatlarining xalqaro tabiatiga qaramay, "xalqaro energetika huquqi" tushunchasi keng rivojlanmagan¹⁹.

Shu bilan birga mualliflarning energetika sohasidagi munosabatlarni xalqaro-huquqiy tartibga solish haqidagi fikrlari energetika munosabatlarining xalqarolashuvi jarayonini istisno etmaydi. Shu o'rinda, ushbu jarayonning ikki shakli mavjudligini hisobga olish kerak:

1) energiya bozorlarini tartibga solishda xalqaro huquqning ahamiyati va ta'sirining kuchayishi;

2) Tartibga solish predmetining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda huquqiy mexanizmlarni yaratish.

Birinchidan, so'nggi bir necha o'n yilliklar davomida energiya resurslari savdosi davlatlarning milliy chegaralaridan tashqariga chiqdi. Bu, birinchi navbatda, sanoatni qayta qurish, xalqaro energetika bozorida muayyan ishtirokchilarning ulushlarini xususiylashtirish, yangi raqobatdosh ishtirokchilarning paydo bo'lishi, korporatsiyalarning transchegaraviy va mintaqalararo integratsiyasi bilan bog'liq bo'lib, bu energiya savdosining xalqaro xarakterini keltirib chiqardi.

Professor Kim Talus ta'kidlaganidek, "...xalqaro bozorlar xalqaro tartibga solishni talab qiladi. Alohida milliy huquqiy tartibga solish rejimlari yetarli emas"²⁰. Shu boisdan xalqaro huquq subyektlari energetika sohasini tartibga solishga qaratilgan maxsus xalqaro-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishlari zarur.

Ana shunday hujjatlardan biri Xalqaro Energetika Xartiyasi doirasida taqdim etilgan bo'lib, u energetika sohasidagi huquqiy munosabatlar sub'yektlarining investisiyalar va manfaatlarini himoya qilishning ko'p tomonlama davlatlararo mexanizmining eng yorqin namunasi bo'lib

¹⁶ Schill S. The interface between national and international energy law: Research Handbook on international energy law, edited by Talus K. – UK, USA: Edward Elgar. – p. 44. // URL:

<https://play.google.com/books/reader?printsec=frontcover&output=reader&id=wt9nAwAAQBAJ&pg=GBS.PR3>

¹⁷ Bradbrook A. Energy Law as an Academic Discipline // Journal of Energy and Natural Resources Law. – 1996. - № 14. – P. 194.

¹⁸ Международное право / отв. ред. А.Н. Вылегжанин. – М.: Юрайт-Издательство, 2009. – С. 988

¹⁹ Смирнов Д.Л. К вопросу о понятиях «международное энергетическое право» и «Энергетическое право ЕС» // Московский журнал международного права. – 2010. - № 1(77). – с. 148.

²⁰ Internationalization of energy law: Research Handbook on international energy law, edited by Talus K. – UK, USA: Edward Elgar. – p. 4-5. // URL:

<https://play.google.com/books/reader?printsec=frontcover&output=reader&id=wt9nAwAAQBAJ&pg=GBS.PR3>

xizmat qiladi²¹. Atom energetikasi sohasida ham bir qancha xalqaro shartnomalar mavjud, ammo ular yanada torroq qo'llanish doirasiga egadir²².

Bundan tashqari, xalqaro energetika munosabatlarini tartibga solishga xalqaro iqtisodiy huquq normalari bevosita ta'sir qiladi, ular ikki aniq jihatga bevosita taalluqlidir²³:

- 1) Tabiiy resurslar ustidan suverenitet;
- 2) investorlar huquqlarini himoya qilish.

Shunday qilib, xalqaro iqtisodiy huquq birinchi navbatda davlatlar o'rtasida, shuningdek ular va xalqaro huquqning boshqa subyektlari o'rtasida namoyon bo'ladigan xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy tamoyillar va normalar majmui sifatida xalqaro energiya bozorini tartibga solishning asosiy tamoyillarini belgilaydi²⁴.

Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1962-yil 14-dekabrda 1803 (XVII) rezolyusiyasida "millatlar va xalqlarning tabiiy zaxiralari va boyliklari ustidan suverenitetga bo'lgan ajralmas huquqi" mustahkamlab qo'yilgan, bu esa ularning milliy taraqqiyoti va farovonligi manfaatlari yo'lida amalga oshirilishi lozim²⁵. Demak, tabiiy resurslarni milliy lashtirish, ekspropriasiya qilish yoki rekvizitsiya qilishda aynan jismoniy va yuridik shaxslarning (shu jumladan chet elliklarning) umum manfaati, xavfsizligi va milliy manfaatlarini hisobga olish kerak.

Bunday hollarda suverenitetga bo'lgan huquqini amalga oshirayotgan tomonga xalqaro huquq normalariga amal qilgan holda va milliy qonunchilikdagi qoidalarga muvofiq tegishli kompensatsiya to'lanadi.

Agar nizo yuzaga kelsa, u arbitraj yoki sud tartibida hal qilinishi kerak. Xalqaro tajribada Xalqaro Savdo Palatasining Xalqaro Arbitraj sudi amaliyotida Liviya Arab Respublikasi hukumati tomonidan "Texaco Overseas Petroleum Company"ga tegishli bo'lgan bir qancha neft kompaniyalarini milliy lashtirishga oid ish ko'rilganligini misol tariqasida keltirish mumkin²⁶. Qarorda sud odat huquqiga ishora qiladi va shu bilan milliy lashtirishni davlat huquqi sifatida tasdiqlaydi. Bundan tashqari, nafaqat ularning tabiiy boyliklari ustidan suverenitet huquqi, balki davlatning hududiy yaxlitligiga rioya qilish orqali suverenitet huquqi ham ta'minlanadi.

Xalqaro energetika munosabatlarida investitsiyalarni himoya qilish borasida "Investitsiyaviy nizolarni hal qilish xalqaro markazi (The ICSID)" tomonidan ko'riladigan da'volarning 25 foizi neft-gaz va tog'-kon sanoati masalalariga taalluqligi markazning muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Bu o'z navbatida, energiya bozorida investorlar huquqlarini himoya qilish sohasidagi faollik yuqori darajada ekanligi haqida xulosa qilish imkonini beradi.

Binobarin, xalqaro energetika hamkorligi, albatta, iqtisodiy jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Xuddi shu tarzda, bu sohaga boshqa sohalar – atrof-muhitni muhofaza qilish, inson huquqlari va

²¹ Konoplyanik A.A Rossiya i Energeticheskaya Xartiya. – M.: RGU nefti i gaza im. I.M. Gubkina, 2010. – S. 26. Konoplyanik A.A Rossiya i Energeticheskaya Xartiya. – M.: RGU nefti i gaza im. I.M. Gubkina, 2010. – S. 26.

²² Convention on Assistance in the Case of a Nuclear Accident Or Radiological Emergency 1986; Convention on Supplementary Compensation for Nuclear Damage 1997.

²³ Internationalization of energy law: Research Handbook on international energy law, edited by Talus K. – UK, USA: Edward Elgar. – p. 4-5. // URL:

<https://play.google.com/books/reader?printsec=frontcover&output=reader&id=wt9nAwAAQBAJ&pg=GBS.PR3>

²⁴ Международное право / отв. ред. А.Н. Вылегжанин. – М.: Юрайт-Издат, 2009. – С. 988.

²⁵ UN General Assembly resolution № 1803 (XVII) of 14 December 1962 "Permanent sovereignty over natural resources". // URL: <http://www.ohchr.org/Documents/ProfessionalInterest/resources.pdf>

²⁶ International arbitral tribunal: a ward on the merits in the dispute Texaco overseas petroleum Company/California Asiatic Oil Company and the government of the Libyan Arab Republic. Vol. 17. – 1978. – P. 28. URL:

<https://ru.scribd.com/doc/176397269/Texaco-Overseas-Petroleum-Company-and-California>.

asosiy erkinliklarini himoya qilish, dengiz huquqi va boshqa ko'plab sohalardagi xalqaro hamkorlik ham ta'sir ko'rsatadi.

Energetika sohasini xalqaro-huquqiy tartibga solishning ikkinchi usuli "milliy qonunchilikni xalqarolashtirish" shaklida namoyon bo'ladi. Chunki, xalqaro tajribada milliy (ichki) huquq va xalqaro huquq tushunchalari birlashib ketadigan holatlar mavjud. Bunday simbiozga misol sifatida milliy va xalqaro huquq normalarini uyg'unlashtirgan energetika masalalarini tartibga solish bo'yicha Yevropa Ittifoqi qonunchiligini keltirish mumkin.

Ushbu qoidaning tasdig'ini Yevropa sudining 1964-yil 15-iyuldagi 6/64-sonli "*Flaminio Costa v E.N.E.L.*" ishidagi qarorida ko'rish mumkin²⁷, bu esa Yevropa Ittifoqi huquqining maqomini tubdan o'zgartirdi va uning unga a'zo davlatlar qonunlaridan ustunligini belgiladi. Shuningdek, "*Electrabel S.A. v. Republic of Hungary*" ishi bo'yicha Investitsiyaviy nizolarini hal qilish bo'yicha xalqaro markazning (ICSID) qarorida²⁸ aytilishicha, Yevropa qonunchiligi, faqat Yevropa Ittifoqi kelishuvlari bilan cheklanmagan holda, Xalqaro Energetika Xartiyasining 26 (6) moddasiga muvofiq nizolarni, xususan, investitsiyaviy nizolarni hal qilish uchun manba sifatida foydalaniladi.

Yevropa Ittifoqining energetika qonunchiligi juda tez rivojlanmoqda. Ushbu sohada qabul qilingan birinchi hujjatlardan biri Yevropa Ittifoqida elektr tarmoqlarini tartibga solishning umumiy qoidalarini belgilaydigan 96/92/ YEI Direktivasi edi²⁹. Ushbu normativ-huquqiy hujjatning mazmuni va mohiyati shundan iboratki, unda muayyan hududda energiya resurslari bilan ta'minlashni tashkil etish, savdodagi ma'muriy to'siqlarni kamaytirish, atrof-muhitga ta'sir qilish bilan bog'liq vaziyatni yaxshilash va shunga o'xshash boshqa jihatlarining yagona qoidalari va tamoyillari joriy etilgan³⁰.

Energetika huquqini xalqarolashtirishning yana bir misoli, neft sanoatida odat huquqi normasi bo'lgan "*Lex Petrolea*" konsepsiyasidir³¹. Tim Martin o'zining "*Lex Petrolea in international law*" monografiyasida ushbu atama yuridik adabiyotlar leksikoniga chorak asrdan ko'proq vaqt oldin kirganligini ta'kidlaydi. Bu atama birinchi marta 1982-yilda *ad hoc* tribunal tomonidan ko'rib chiqilgan "*Kuwait v. Aminoil*" ishida tilga olingan³².

Uning mohiyati shundan iborat ediki, Kuvayt Yaqin Sharqdagi neft konsessiyalarini milliyalashtirish uchun unga to'langan tovon miqdorini baholar ekan, "neft sanoatiga nisbatan qo'llaniladigan xalqaro odat xarakteriga ega" o'ziga xos baholash usuli – "*Lex Petrolea*"ga ishora qiladi. Tribunal Kuvaytning pozitsiyasiga qo'shilmaganiga va ishda ko'rsatilgan holatlar *opinio juris* ko'rsatmasligini ta'kidlaganiga qaramay, bu konsepsiya keyinchalik energetika

²⁷ The Judgment of the Court of Justice of European Union regarding case 6/64 "*Flaminio Costa v. ENEL*". – 1964. – P. 592. // URL: <http://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/PDF/?uri=CELEX:61964CJ0006&from=EN>

²⁸ The Judgment of Tribunal of the ICSID regarding case № ARB/07/19 "*Electrabel S.A. v. Republic of Hungary*". – 2012. – P. 4.195 // URL: <http://www.itlaw.com/sites/default/files/case-documents/italaw1071clean.pdf>

²⁹ Directive of the European Parliament and of the Council concerning common rules for the internal market in electricity № 96/92/YES. – 1996. // URL: <http://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/PDF/?uri=CELEX:31996L0092&from=EN>

³⁰ The Treaty establishing the European Energy community. – 2009. // URL: https://www.energy-community.org/portal/page/portal/ENC_HOME/ENERGY_COMMUNITY/Legal/Treaty

³¹ Internationalization of energy law: Research Handbook on international energy law, edited by Talus K. – UK, USA: Edward Elgar. - P. 8.; Bowman J. LEX PETROLEA: Sources and Successes of International Petroleum Law // King&Spalding. – 2015. URL: <http://www.energylawexchange.com/lex-petrolea-sources-successes-international-petroleum-law/>; Bishop R. Doak, International Arbitration of Petroleum Disputes: The Development of a Lex Petrolea. – 1998. // URL: https://www.trans-lex.org/131500/_/bishop-r-doak-international-arbitration-of-petroleum-disputes-the-development-of-a-lex-petrolea-yca-1998-at-1131-et-seq/

³² The Summary regarding case "*The government of the State of Kuwait v. The American Independent Oil Company*". – 1982. – P. 8. // URL: http://www.biicl.org/files/3938_1982_kuwait_v_aminoil.pdf

masalalarini xalqaro va milliy tartibga solish doirasida ishlab chiqilgan. Tim Martin yozganidek, "Lex Petrolea"ni "energetika-huquqiy munosabatlar doirasida xalqaro huquqning qo'llanilishi yoki xalqaro energiya bozorining talablari va ko'lamiga javob beradigan yagona huquqiy rejim" sifatida ko'rish mumkin³³.

Shunday qilib, energetika keng ko'lamli, ko'p komponentli tushuncha bo'lib, u albatta xalqaro darajada huquqiy tartibga solishni talab qiladi. Shubhasiz, ushbu vaziyatning xalqaro jihati ushbu masalarga ta'sir qiluvchi xalqaro huquqning yangi manbalarining paydo bo'lishi shaklida ham, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan huquqiy xarakterdagi boshqa mexanizmlarning paydo bo'lishi shaklida ham namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, adabiyotlarda bu jarayon energetika qonunchiligining xalqarolashuvi deb ataladi. Biroq, bu jarayonlar energiya resursining turiga qarab o'zgaruvchan bo'lishi mumkin. Xalqarolashuv asosan neft-gaz yoki ko'mir sanoatida jadal, elektr energetikasi sohasida biroz sustroq, qayta tiklanadigan energiya manbalariga kelganda ham zaifroqdir. Biroq, u yoki bu darajada global energiya bozorining barcha qismlarini qamrab oladi.

Neft, gaz va energetika sohaslarida tez-tez uchraydigan nizolar odatda kamida uchta tomonni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham xalqaro-huquqiy munosabatlarning ushbu sohasini ko'p tomonlama tartibga solish zarurati paydo bo'ldi.

N. Djordjiu o'zining "A rule-based architecture for the energy sector: the WTO and the ECT" nomli maqolasida ta'kidlaganidek, JST keng ko'p tomonlama tartibga solishni o'rnatgan bo'lsa-da, u xalqaro energiya savdosi masalalariga bevosita murojaat qilmaydi³⁴.

Ushbu bo'shliqni Xalqaro Energetika Xartiyasi to'ldiradi, u mohiyatan savdo va energetika sanoatiga investitsiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan huquqiy normalarni belgilovchi yagona ko'p tomonlama xalqaro shartnomadir. Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqining huquqiy tizimi energetika sohasini ko'p tomonlama huquqiy tartibga solishga ishora qiladi.

Energetikani ko'p tomonlama xalqaro-huquqiy tartibga solish sohasida xalqaro huquq subyektlari duch keladigan muammolar sifatida, xususan, quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- 1) Energetika sohasida investorlar huquqlarini himoya qilish masalalari;
- 2) xalqaro nizolarni tinch hal etish;
- 3) Energiya resurslarining savdosi va tranziti muammolari.

Xalqaro energetika sohasidagi ayrim masalalarni tartibga soluvchi maxsus huquqiy hujjat yaratish zarurati bo'yicha huquqshunolar va olimlar o'rtasida yakdil fikr yo'q. JST yuridik departamenti maslahatchisi Gabriyel Marso Jahon Savdo Tashkilotini ushbu sohada muzokaralar va yagona me'yoriy hujjat yaratish uchun potensial platforma sifatida ko'radi³⁵.

Boshqa mutaxassislar, o'z navbatida, JST va uning Kotibiyatini energetika sohasidagi ekspertlar emas, balki "savdo ekspertlari", ya'ni xalqaro savdo munosabatlarini tartibga solish sohasidagi mutaxassislar, deb hisoblaydilar. Bundan tashqari, ushbu yondashuv tarafdorlari bu masalani Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) vakolatiga bog'liq bo'lishi mumkinligini ta'kidlashadi.

³³ Martin T. Lex Petrolea in International law. – 2012. – P. 1. // URL: <http://timmartin.ca/wp-content/uploads/2016/02/Lex-Petrolea-in-International-Law-Martin2012.pdf>

³⁴ Georgiou N.A. A rule-based architecture for the energy sector: the WTO and the ECT. Energy Charter Secretariat Knowledge Centre. – 2016. – P. 15. // URL:

http://www.energycharter.org/fileadmin/DocumentsMedia/Occasional/Architecture_Energy_Sector_WTO-ECT.pdf

³⁵ Global Challenges at the Intersection of Trade, Energy and the Environment, edited by Pauwelyn J. Graduate Institute for International and Development Studies. – 2010. – P. 38.

Bundan tashqari, JST qoidalari bo'yicha nizolarni hal qilish mexanizmidagi mavjud bo'lgan cheklovlarni yodda tutish kerak. Energiya resurslarini import qilish bo'yicha cheklovlar javobgarlik choralari sifatida belgilanishi mumkin, bu import qiluvchi mamlakatlarning o'zlari uchun maqbul bo'lmaydi (Rossiyadan Yevropa Ittifoqiga gaz yetkazib berishdagi uzilishlar kabi).

Jahon energetika bozoriga sarmoya kiritish zarurati muqarrar ravishda investorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatlarini belgilovchi mustahkam huquqiy bazani yaratish zaruratini keltirib chiqaradi. Biroq, bu holatda JSTning zaif tomoni investitsiya faoliyatini kompleks tartibga solishning yo'qligida namoyon bo'ladi, bu energetika sohasini huquqiy tartibga solish muammolarini hal qilishda e'tibordan chetda qolmasligi kerak³⁶.

Gabriyel Marso, shuningdek, JST doirasida energetika masalalarini tartibga solish bo'yicha yangi hukumatlararo kelishuv yaratish zarurati bormi, degan savolga e'tibor qaratadi. Bunday holda, tahlilchilar orasida uchta pozitsiya ajralib turadi:

1) Energetika bo'yicha yangi ko'p tomonlama xalqaro shartnomani yaratish tartibga solish predmetining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda bir qator maxsus qoidalarni o'z ichiga oladi (masalan, JSTning qishloq xo'jaligi, to'qimachilik va kiyim-kechak bo'yicha JST bitimlari va boshqalar), shuni yodda tutish kerakki, agar JSTga a'zo bo'lgan ba'zi davlatlar shartnoma loyahasini yaratish bo'yicha muzokaralarda qatnashmasalar ham, ular boshqa a'zolar bilan bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo'ladilar.

2) JSTning amaldagi kelishuvlariga o'zgartirishlar kiritish muqobil variant sifatida ko'rib chiqilmoqda. Bu JSTni tashkil etish to'g'risidagi Marokash bitimining 10-moddasi qoidalari hisobga olishi kerak.

3) JST kelishuvlariga o'zgartirishlar kiritishning qiyin protsedurasidan qochadi, bu alohida "sharhlar"ni yaratishdir. Boshqacha qilib aytganda, bu JSTning konsensus asosida qabul qilingan qarori bo'lib, energetika sohasida JST qoidalari qo'llashni talqin qilish vositasidir.

Bizning fikrimizcha, energetika sohasidagi xalqaro huquqiy munosabatlarning asosiy tamoyillari va asoslarini belgilovchi umumiy xarakterdagi xalqaro-huquqiy hujjatni ishlab chiqish zarur. Prinsiplarning quyidagi tasnifini keltirish mumkin:

1. Xalqaro huquq tamoyillari bilan bog'liq bo'lgan umumiy tamoyillar:
 - a) davlatlarning o'z hududidagi tabiiy resurslar ustidan suvereniteti prinsipi;
 - b) xalqaro energetika xavfsizligi va samaradorligini ta'minlash uchun xalqaro huquq subyektlarining hamkorligi tamoyili.
2. Xalqaro energetika xavfsizligini ta'minlashga doir tamoyillar:
 - a) resurslardan foydalanishning oqilonaligi va energiya samaradorligi prinsipi;
 - b) Atrof muhitni muhofaza qilish tamoyili;
 - c) Xalqaro energetika munosabatlarini amalga oshirishda shaffoflik va oshkorlik tamoyili.
3. Energetika sohasida investitsiya va savdo faoliyati bilan bog'liq tamoyillar:
 - a) energiya resurslarini tashishda tranzit erkinligi tamoyili;
 - b) teng huquqlilik tamoyili;
 - c) Investitsiyalar va erkin savdo uchun eng ko'p qulaylik yaratish prinsipi.

Tamoyillarning ushbu tasnifga binoan, resurs salohiyatiga, eksportyor hamda importyorlarga energiya tashuvchilarga, shu jumladan quvur transporti va infratuzilmasiga ta'sir qiluvchi barcha jihatlar ochib beriladi.

³⁶ Global Challenges at the Intersection of Trade, Energy and the Environment, edited by Pauwelyn J. Graduate Institute for International and Development Studies. – 2010. – P. 39.

Shu bilan birga, energiya resurslarining o'ziga xos xususiyatlarini (ularning jismoniy shakli va siyosiy jihati), shuningdek, ushbu xususiyatlardan kelib chiqadigan energetika sohasidagi savdoni tartibga solishda hal etilmagan muammolar majmuini hisobga olish kerak. JST tomonidan o'rnatilgan xalqaro-huquqiy rejimdan tashqari, shuni ham yodda tutish kerakki, Energetika Xartiyasi shartnomasi hozirgi vaqtda xalqaro savdo, tranzit, investitsiya faoliyati va manfaatlarini himoya qilish mexanizmini aniq tartibga soluvchi energetika sohasidagi yagona universal ko'p tomonlama xalqaro shartnomadir. Binobarin, jahon energetika bozorini huquqiy tartibga solish anchayin tarqoq bo'lib, xalqaro energetika munosabatlarining qoida va tamoyillarini yagona shaklga keltirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Energetika munosabatlariga ta'sir ko'rsatadigan global energetika bozorida muhim ishtirokchilar xalqaro tashkilotlardir. Bugun energiya xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan bir qator tashkilotlar mavjud. Biroq, faqatgina muayyan guruhlar manfaatlarini ilgari surishga urinadigan bu tashkilotlar ba'zan jahon energetika bozorida keskin vaziyat yaratishga va uning beqarorlashishiga sabab bo'lmoqda.

1960-yilda tashkil topgan bu sohadagi birinchi institutlardan biri – neft eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti (OPEC) – byudjeti neft mahsulotlari eksportiga bog'liq bo'lgan mamlakatlarni birlashtiruvchi hukumatlararo kartel. Tashkilotning maqsadi – energetika siyosatini muvofiqlashtirish, neft qazib chiqarish hajmini tartibga solish, jahon narxlarining barqarorligini ta'minlash usullarini ishlab chiqish kabi funksiyalarni bajarib, a'zo-davlatlarning manfaatlarini himoya qilish.

1961-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)³⁷ tashkil etildi, u o'z a'zo-davlatlarining iqtisod sohasida barqaror iqtisodiy o'sishga erishish yo'lidagi siyosatini muvofiqlashtiradi. Bugungi kunda tashkilot mamlakatlari jahon iqtisodiyotida markaziy o'rinni egallab, jahon siyosiy jarayoniga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Tashkilot huzurida yadro energiyasi va yadroviy xavfsizlik ishlarini rivojlantirish bilan shug'ullanuvchi Atom energiyasi bo'yicha agentlik (NEA)³⁸ faoliyat yuritadi. 1973-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti qoshida embargoga javoban OPEKga qarama-qarshi o'laroq Xalqaro Energiya Agentligi (IYEA)³⁹ tashkil etilgan. Tashkilotning asosiy maqsadi import qiluvchi mamlakatlarning kollektiv energiya xavfsizligini ta'minlash edi. Agentlik jahon neft bozorining holatini tahlil qiladi, energetika resurslarini yetkazib berishdagi uzilishlarni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqadi, a'zo mamlakatlarga tavsiyalar beradi, ularga 90 kunlik zaxira saqlash majburiyatini yuklaydi, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ushbu ikki tashkilot energiya xavfsizligini ta'minlash muammosiga bipolyarli yondashish bilan tavsiflanadigan global energiya tizimining asosini tashkil etadi, bu ham importyorlar, ham eksportyorlarning guruh manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan. Biroq, jahon iqtisodiyoti va siyosatidagi global tendensiyalar global energiya xavfsizligiga xavf tug'diradi va ularni bartaraf etish uchun birgalikda harakat qilishni, jahon energetika institutlarini yanada rivojlantirish, ularning funktsiya va vakolat doiralarini kengaytirishni taqazo qiladi.

Bugungi kunda turli davlatlar guruhlarining qarama-qarshi manfaatlariga javob bera oladigan yagona mexanizmni yaratishga urinishlar davom etmoqda. Shunday qilib, 1991-yilda ta'sis

³⁷ Qarang: Official Site The Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD). URL: <http://www.oecd.org>

³⁸ Qarang: Official Site The Nuclear Energy Agency (NEA). URL: <http://www.oecd-nea.org>

³⁹ Qarang: Official Site The International Energy Agency (IEA). URL: <http://www.iea.org>

etilgan Xalqaro energetika forumining (IEF) asosiy vazifasi importyorlar va energiya eksportyorlari o'rtasida muloqotni ta'minlashdan iborat.

Shuningdek, 1991-yilda o'zaro manfaatli energetika sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishning yagona mexanizmini yaratish maqsadida Yevropa energetika Xartiyasi ishlab chiqildi. Keyinchalik 1994-yilda Xartiya Shartnomasi imzolandi, bu esa barcha ishtirokchi mamlakatlar uchun majburiy bo'lgan yagona qoidalar bilan energetika sohasidagi hamkorlikning huquqiy asosiga aylandi.

2001-yilda Gaz eksport qiluvchi davlatlar forumi (GECF)⁴⁰ tashkil etildi. Biroq, u OPEK kabi faqat yetkazib beruvchi davlatlar guruhi manfaatlarini ifodalaydi.

Zamonaviy siyosiy jarayonning yana bir xususiyati – umumiy institutlar negizida kollektiv energiya xavfsizligining regional tizimlarini yaratish tendensiyasini ifodalaydi. Masalan, bunday tashkilotlar Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik (PECF) hukumatlararo forumi, Shanxay hamkorlik tashkiloti va boshqalardir.

Xalqaro tashkilotlarning keng qamrovli faoliyatiga qaramay, bugungi kunga qadar energetika bozoridagi barcha ishtirokchilarning manfaatlarini tartibga soladigan samarali faoliyat ko'rsatadigan xalqaro tashkilot mavjud emas. Masalan, Energetika barqarorligi kengashi yoki mavjud institutlar o'rtasida mustahkam aloqani o'rnatish yoki umumiy energetika qonunchiligi va energiya xavfsizligini ta'minlash sohasidagi ixtisoslashgan muassasalar, tuzilmalar yaratish kabi ishlarni amalga oshirish zarur, deb hisoblaymiz.

Shunday qilib, bugungi kunda xalqaro energetika xavfsizligining mavjud tizimi muayyan tuzatishlarni talab qilishi barchaga ayon. Dunyoda bunday yangi energiya tartibotini yaratish barcha bozor ishtirokchilari o'rtasida manfaatlar muvozanatini talab qiladi.

XULOSA

Xulosa o'mida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda mintaqalar va butun dunyoda kuchlar muvozanatini o'zgartirish, o'zaro munosabatlarda ta'sir doiralarini qayta taqsimlash, resurslarga boy hududlar va transport yo'nalishlari uchun kurash olib boradigan energetika munosabatlarining faol ishtirokchilari kengayib bormoqda.

1. Energiya resurslarining o'ziga xos xususiyatlarini (ularning jismoniy shakli va siyosiy jihati), shuningdek, ushbu xususiyatlardan kelib chiqadigan energetika sohasidagi savdoni tartibga solishda hal etilmagan muammolar majmuini hisobga olish kerak.

2. Jahon energetika bozorini huquqiy tartibga solish anchayin tarqoq bo'lib, xalqaro energetika munosabatlarining qoida va tamoyillarini yagona shaklga keltirish zarurati yuzaga kelmoqda.

3. Xalqaro energetika munosabatlarining holati asosan davlatlarning geosiyosiy manfaatlarini va o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'lgan milliy energetika strategiyasiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

4. Xalqaro energetika munosabatlaridagi barcha ishtirokchilar pozitsiyalarining nomutanosibliigi energetika xavfsizligini ta'minlash borasidagi muammolarni yuzaga keltiradi. Bugungi kunda energetika sohasi manfaatlar to'qnashuvi va resurslar uchun keskin kurash maydoniga aylandi.

⁴⁰ Qarang: Official Site. The Gas Exporting Countries Forum, GECF. URL: <http://www.gecf.org>.